

JADIDLAR MEROSI: ZAMONAVIY TARAQQIYOT UCHUN ILHOM MANBAI

Sanaqulova Lobar Hamidullo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16314400>

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda tashkil etilganligi, Turkiston jadidchiligi, yangi usul maktablarining ochilishi va jadidlar tashkil etilgan shirkatlar va ularning g'oya va maqsadlari haqida gap boradi. Jadidlarning umumiy merosi, ular qoldirgan maktab ta'lim tizimi va bugundagi islohotlar zahirida poydevor bo'lishgani haqida aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, me'ros, taraqqiyot, shirkat, maktab, mustaqillik, ma'rifat,

Kirish: O'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy tarixida jadidchilik harakati alohida o'rin tutadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan bu harakat, zamonasi uchun o'ta ilg'or g'oyalarni ilgari surgan bo'lib, milliy uyg'onish, zamonaviy ta'lim, ayollar huquqlari, va ijtimoiy islohotlar kabi masalalarda hal qiluvchi rol o'ynagan. Bugungi kunda esa jadidlar qoldirgan ma'naviy va ma'rifiy meros zamonaviy taraqqiyot yo'lida biz uchun muhim ilhom manbaidir.

Jadidchilik harakati — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy va madaniy islohotlar harakati bo'lib, uning asosiy maqsadi xalqni ilm-fan, zamonaviy bilimlar, milliy o'zlik va taraqqiyot yo'liga yetaklash edi. Ushbu harakat vakillari – jadidlar – millat kelajagi uchun ta'lim-tarbiya, ma'rifat, matbuot, teatr, adabiyot kabi sohalarni modernizatsiya qilish orqali jamiyatni uyg'otishga intildilar. Jadidchilik merosi jahon miqyosida, Yevropa, Fransiya va Turkiston o'lkalarida isloh qilingan. Fransiya jadidlaridan Volter, Russo, Didro kabilar erkinlik, ilm-fan va inson huquqlari g'oyalarni ilgari surgan. Ularning me'rosi Turkiston jadidlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Yevropada „Jadidchilik oqimi“ bo'lmagan bo'lsa-da, Yevropada marifatparvarligi, ilmiy taraqqiyoti va milliy uyg'onish harakatlari jadidchilikning shakllanishiga asos bo'ldi. Bu oqimlar Turkiston jadidlariga ilhom manbai bo'ldi.

Asosiy qism:

Jadidchilik- bu nafaqat Turkiston, balki butun musulmon sharqida milliy uyg'onish, ma'rifat va ijtimoiy islohotlar harakatning ramziga aylangan tarixiy hodisadir. Uning merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil G'aspirali rahbarligida vujudga kelgan. Shu ondan boshlab butun Turkistonda jadidchilik oqimi tarqalgan. Turkiston mintaqasida jadidchilik harakati tarqalish joyiga ko'ra uchga bo'linadi:

- Turkiston jadidchiligi
- Buxoro jadidchiligi
- Xiva jadidchiligi

Turkiston o'lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qiladi. Buxoro jadidchilik harakatiga Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar tashkil etgan. „Buxoroi sharif shirkati“ tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ulanishgan shirkatning tashkilotchilari esa: Ahmadjon Hamdiy, Usmon Xo'ja, Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Sa'diy keyinchalik „Tarbiyai atfol“, „Bolalar tarbiyasi“ maxfiy jamiyatini tuzishdi. Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi „Buxoro ta'mimi maorif jamiyati: bo'limiga o'qishga jo'natgan. Xivadagi jadidchilikda esa qozikalon Boboxun Salimov rahbarlik qilgan

“Jamiyati xayriya” tuzilib uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochilgan.

Jadidlarning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilardagilar edi:

-Shariatni isloh etish, Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xulofotdan ozod etish xalqqa ma‘rifat tarqatish.

-Milliy ozodlik, ayollarni o‘qishga jalb qilish, tenglik g‘oyalarini ilgari surish.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fayzulla Xo‘jayev, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Muhammadsharif So‘fizoda kabi ziyolilar xalqni ilm-ma‘rifatga chorlaydi.

-Zamonaviy jadidlari ozod-farovon hayot uchun xalqqa ma‘rifat ilmini yoyishdi. Dunyoviy va diniy bilimlarni barchaga uyg‘unlashtirib o‘rgatishdi.

adidchilikning asosiy g‘oyalari:

-Zamonaviy ta‘lim: Eski usul maktablar o‘rniga yangi usulda, ya‘ni dunyoviy fanlar o‘qitiladigan maktablar tashkil etildi.

-Milliy uyg‘onish: O‘zbek xalqi va boshqa turkiy xalqlarning o‘z tarixini, tilini, madaniyatini anglashga da‘vat qilindi.

-Ayollar huquqlari: Ayollarni o‘qitish, ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish masalalari ilgari surildi.

-Matbuot va axborot: Jadidlar gazeta va jurnallar chiqargan, ijtimoiy muammolarni yoritgan.

-Islohotparvarlik: Siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda yangilanishlar zarurligi targ‘ib qilindi.

Jadidchilik harakatining mohiyati

Jadidchilik harakati “usuli jadid”, ya‘ni yangi usuldagi ta‘lim tizimi asosida shakllangan. Ularning asosiy maqsadi – millatni jaholat va sustkashlikdan xalos etib, zamonaviy fan-texnika, ma‘rifat va taraqqiyot sari yetaklash edi. Jadidlar eski usul maktablar o‘rniga yangi usul maktablar ochib, o‘quvchilarga geografiya, matematika, tarix, fizika kabi dunyoviy fanlarni o‘rgatishni yo‘lga qo‘ydilar.

Ismail Gaspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat kabi jadidlar o‘z faoliyati orqali butun jamiyat tafakkurini yangilashga intildilar. Ular maktab, matbuot, teatr, adabiyot, tarix va tillar sohasida tub islohotlar qilishga bel bog‘laganlar.

-Jadid merosi va bugungi taraqqiyot Bugungi kunda jadidchilik merosi biz uchun shunchaki tarixiy o‘tmish emas, balki kelajak sari dadil odimlashda ilhom manbai bo‘lishi mumkin. Jadidlarning quyidagi g‘oyalari hozirgi zamon uchun ham dolzarbdir:

-Ta‘limning ustuvorligi: Jadidlar ilm-fanni milliy taraqqiyotning kaliti deb bilganlar. Bugungi global raqobatda ham ilmi, malakali avlodni tarbiyalash birinchi darajadagi vazifadir.

-Milliy o‘zlikni anglash: Jadidlar o‘zbek xalqining tarixiy xotirasini, tilini, urf-odatlarini qadrlashga chaqirgan. Bu g‘oya bugun ham yosh avlodda vatanparvarlik va milliy g‘ururni shakllantirishda muhimdir.

-Ijtimoiy tenglik va ayollar huquqlari: Ayollarni o‘qitish, ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta‘minlash jadidlarning e‘tibor markazida bo‘lgan. Hozirgi zamonda gender tengligi masalasi ham shu ruhda davom ettirilmoqda.

-Ommaviy axborot va madaniy uygʻonish: Jadidlar matbuot orqali xalqni ogohlikka, fikrlashga chorlaganlar. Bugungi raqamli asrda ham axborotdan toʻgʻri foydalanish, ommani haqqoniy bilim bilan qurollantirish — muhim vazifadir.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uygʻonishda va ravnaqida asosiy omil boʻlib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼnaviy yoʻl oʻqishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalb etish, madaniymaʼnaviysaviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xoʻjaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyatartoboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning oʻzlari ham yosh boʻlganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-gʻoyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, maʼrifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga daʼvat etish gʻoyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr boʻlib qoldi. Har qanday ogʻir sharoitda ular oʻz qarashlarini oʻzgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼnaviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi gʻoyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz oʻrinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bogʻlaganlar va shu yoʻlda yoshlar asosiy kuch boʻlganligini tushunib, ularning ong-saviyasini oshirish uchun koʻp saʼyharakatlar qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib oʻrin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil Oʻzbekistonda namoyon boʻlib turmoqda. Jadidchilik harakati nafaqat oʻz davrining ijtimoiy-siyosiy muammolariga yechim boʻlgan, balki kelajak avlodlar uchun ham oʻrnak boʻladigan yuksak maʼnaviy merosni qoldirdi. Ularning fidokorona mehnati, tafakkurdagi yangilik sari intilishi, xalqparvarlik ruhi bugungi kunda biz uchun chinakam ilhom manbai boʻla oladi. Bugungi Oʻzbekiston taraqqiyot yoʻlida dadil odimlar ekan, jadidchilik merosi unga kuchli maʼnaviy poydevor boʻlib xizmat qilmoqda.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyo Sayd, Oʻzbek vaqtli matbuotiga oid materiallar (1870—1927), Toshkent, 1927;
2. Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926;
3. Avloniy A., Tanlangan asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent, 1998;
4. Oʻzbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998;
5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999;+
6. Behbudiy M., Tanlangan asarlar, Toshkent, 1999; Oʻzbekistonning yangi tarixi. 1-kitob [Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida], Toshkent, 2000;
7. Yusupov P., Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar), Urganch, 2000;
8. Xoʻjayev F., Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, Toshkent, 1997;

9. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari, Toshkent, 2001;
10. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)T.2011

